



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 256 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyurayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	

“Mustaqil fikrlash”, “kompetensiya”, “kompetentlik”, “fikrlash kompetensiyasi” tushunchalarining pedagogik mazmuni	196
Kadirova Zarina Ilhomovna	
Tibbiy ingliz tili darslarida ko'p komponentli blended learning strategiyalarining qo'llanishi	202
Rashidova Nodira Xabibullayevna	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyasini rivojlantirish jahon olimlari nigohida.....	205
Mamazoirova Jangil Xamdamovna	
Magistratura tadqiqot amaliyotining bo'lajak fizika o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni	209
Parmanov Jamshid Tag'aymurotovich	
Umumta'lim maktablari matematika to'garagida sferaning elementlarini o'rganish metodikasi	214
Jumayev Erkin Ergashevich, Omonov G'olibjon Tolibovich, Shaxnoza Xolmurodova Zoir qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida o'quvchilarning vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	219
Norova Nargiza Xalmamat qizi	
Oliy o'quv yurtlarida amaliy mashg'ulotlar – bakalavr yo'nalishidagi matematiklarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi omil.....	224
Abduraxmonov Abdumo'min	
Bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda CDIO texnologiyasi va sanoat integratsiyasining samaradorligi	228
Baxronov Rustam Rajabovich	
O'smir o'quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish tarixi.....	231
Botirov Zoir Nuriddin o'g'li	
Husnixatga o'rgatish tamoyillari.....	235
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Muhammadaliyeva Xosiyatxon Xaydaraliyevna	
O'smirlarda suitsidal xavf bilan bog'liq tajovuzkorlik va psixologik determinantlarning kompleks diagnostikasi.....	240
Nahalboyeva Nigora Turdi qizi	
Raqamli muhitda yoshlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari	245
Sangirova Nilufar Sayfidinovna	
O'smirlilik davrida psixologik o'zgarishlar: omillar, xususiyatlar va psixologik yondashuvlar	251
Usmonova Munira Sayfiddinovna	



HUSNIXATGA O'RGATISH TAMOYILLARI

Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti,
pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Muhammadaliyeva Xosiyatxon Xaydaraliyevna

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida husnixatga o'rgatishning asosiy tamoyillari, ularning pedagogik mazmuni va amaliy qo'llanish imkoniyatlari yoritiladi. Husnixat faqat harflarni chiroyli yozish malakasi emas, balki o'quvchining diqqatini jamlash, ko'z va qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish, tartibga rioya qilish, nutqiy va estetik madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Maqolada ongli o'rgatish, izchillik, ko'rgazmalilik, individuallashtirish, gigiyenik talablar, mashqning bosqichma-bosqichligi kabi tamoyillar tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan jadval, mashq namunasi va o'quvchilar yozuvini baholash mezonlari taklif etiladi. Muallif husnixatga o'rgatishda shoshilinch natijaga intilish emas, balki har bir bolaning yozuv harakati, ruhiy tayyorgarligi va estetik idrokini hisobga olish muhimligini asoslaydi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, savod o'rgatish jarayonida yozuv madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: husnixat, yozuv malakasi, tamoyil, boshlang'ich ta'lim, savod o'rgatish, ko'rgazmalilik, grafika, metodika.

Abstract: This article examines the main principles of teaching handwriting in primary education, their pedagogical content, and possibilities for practical application. Handwriting is interpreted not only as the ability to write letters neatly but also as a means of developing students' concentration, coordinating eye and hand movements, observing order and discipline, and forming speech and aesthetic culture. The article analyzes such principles as conscious instruction, consistency, visual demonstration, individualization, hygienic requirements, and the gradual progression of practice. In addition, a table, sample exercises, and criteria for assessing students' handwriting that can be applied during the learning process are proposed. The author substantiates the importance of considering each child's writing movements, psychological readiness, and aesthetic perception rather than pursuing immediate results when teaching handwriting. The research findings are of practical significance for primary school teachers and contribute to strengthening writing culture in the literacy instruction process.

Key words: handwriting, writing skills, principle, primary education, literacy instruction, visual demonstration, graphics, methodology.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные принципы обучения каллиграфии в процессе начального образования, их педагогическое содержание и возможности практического применения. Каллиграфия трактуется не только как навык красивого написания букв, но и как средство развития концентрации внимания учащихся, координации движений глаз и рук, соблюдения порядка, формирования речевой и эстетической культуры. В статье анализируются такие принципы, как сознательное обучение, последовательность, наглядность, индивидуализация, соблюдение гигиенических требований и поэтапность выполнения упражнений. Кроме того, предлагаются таблица, образцы упражнений и критерии оценки письменных работ учащихся, которые могут применяться в учебном процессе. Автор обосновывает важность учета движений руки при письме, психологической готовности и эстетического восприятия каждого ребенка вместо стремления к быстрому получению результата при обучении каллиграфии. Результаты исследования имеют практическое значение для учителей начальных классов и способствуют укреплению культуры письма в процессе обучения грамоте.

Ключевые слова: каллиграфия, навык письма, принцип, начальное образование, обучение грамоте, наглядность, графика, методика.

KIRISH

Boshlang'ich ta'limda husnixatga o'rgatish masalasi ko'pincha faqat yozuvning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq holda tushuniladi. Aslida esa husnixat bolaning fikrlash sur'ati, nutqiy rivojlanishi, diqqat barqarorligi, mayda motorikasi va tartib-intizomga munosabati bilan bevosita aloqador jarayondir. O'quvchi harfni to'g'ri, ravon va o'qilishi oson shaklda yozishni o'rganar ekan, u ayni paytda belgi, tovush, so'z va ma'no o'rtasidagi



bog'lanishni ham mustahkamlaydi. Shuning uchun husnixat savod o'rgatishning yordamchi qismi emas, balki uning tabiiy tarkibiy bo'lagi sifatida qaralishi lozim. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar keng qo'llanayotgan bo'lsa-da, qo'l yozuvining ta'limiy ahamiyati kamaygani yo'q. Aksincha, boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun qo'l bilan yozish fikrni tartibga solish, matnni eslab qolish, tovush-harf munosabatini idrok etish, o'z ishiga mas'uliyat bilan qarash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Harflarni beparvo, shoshqaloq yoki noto'g'ri yozishga odatlangan bola keyingi sinflarda yozma ishlarni bajarishda qiynalishi, matnni tushunarli ifodalashda sekinlashishi mumkin. Shu bois husnixatga o'rgatishning ilk bosqichidayoq to'g'ri tamoyillarga tayanish zarur.

Husnixatga o'rgatishda o'qituvchi faqat namuna ko'rsatib beruvchi shaxs bo'lib qolmaydi. U bolaning yozuv jarayonini kuzatadi, qalamni ushlash holatini to'g'rilaydi, partada o'tirish tartibini eslatadi, yozuvdagi xatoni jazolash emas, balki tushuntirish orqali bartaraf etadi. Ayniqsa, har bir bolaning rivojlanish sur'ati turlicha ekanini hisobga olish muhim. Ba'zi o'quvchilar harf shaklini tez anglaydi, lekin chiziqlar oralig'ini saqlashda qiynaladi; boshqalar esa yozuvni sekin bajarsa-da, shaklga e'tiborli bo'ladi. Demak, husnixat darslarida umumiy talab bilan birga individual yondashuv ham zarur. Mazkur maqolada husnixatga o'rgatish tamoyillari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor o'quvchini chiroyli yozishga majburlashga emas, balki unda yozuvga ongli, estetik va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Husnixatga o'rgatish masalasi boshlang'ich ta'lim metodikasida savod o'rgatish, ona tili ta'limi va yozuv madaniyati bilan bog'liq holda o'rganib kelingan. O'zbek metodist olimlaridan K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva va Sh. Sariyevlar boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish jarayonida yozuv malakasining shakllanishi, tovush-harf munosabati, o'quvchilarning grafik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar [1, s. 67].

Q. Abdullayeva va R. Safarova ishlarida savod o'rgatish davrida o'quvchilarning qo'l harakati, daftar bilan ishlashi, harf unsurlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishi kabi jihatlar metodik nuqtai nazardan izohlangan [2, s. 91].

Xorijiy pedagogikada ham yozuvga o'rgatish keng tadqiq qilingan. K. D. Ushinskiy bolaga yozuvni mexanik ko'chirish emas, ongli mashq orqali o'rgatish zarurligini ta'kidlagan [3, s. 112].

M. Montessori mayda motorika, sezgi organlari va mustaqil mashqning yozuvga tayyorgarlikdagi o'rnini asoslagan [4, s. 58].

L. S. Vygotskiy va D. B. Elkonin ishlarida esa yozuv nutqiy rivojlanishning murakkab shakli sifatida talqin qilinadi; bola belgilar tizimini o'zlashtirar ekan, uning tafakkuri ham yangi bosqichga ko'tariladi [5, s. 146].

Bu qarashlar husnixatga o'rgatish nafaqat grafik, balki psixologik-pedagogik jarayon ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola metodologiyasi pedagogik kuzatish, nazariy tahlil, taqqoslash va amaliy modellashtirish usullariga tayanadi. Avvalo, boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid adabiyotlarda husnixat, yozuv malakasi, savod o'rgatish va grafik ko'nikma tushunchalarining yoritilishi o'rganildi. Keyin husnixatga o'rgatish jarayonida eng ko'p uchraydigan muammolar – harf shaklining buzilishi, qator oralig'iga rioya qilmaslik, yozuvning haddan tashqari mayda yoki yirik bo'lishi, qalamni noto'g'ri ushlash, charchoq tufayli yozuv sifatining pasayishi kabi holatlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda husnixatga o'rgatishning asosiy tamoyillari amaliy dars jarayoni nuqtai nazaridan izohlandi. Har bir tamoyil o'quvchi faoliyati, o'qituvchi rahbarligi va mashq mazmuni bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Bunda yozuv jarayonini faqat natija, ya'ni chiroyli yozilgan sahifa orqali emas, balki jarayonning o'zi orqali baholashga e'tibor berildi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisida yozuv odati asta-sekin shakllanadi; bir martalik chiroyli ish doimiy malaka mavjudligini anglatmaydi.

Shuningdek, maqolada jadval va namunaviy ishlanmalar berildi. Ular o'qituvchiga darsni rejalashtirish, o'quvchi yozuvini kuzatish, xatolarni guruhlariga ajratish va mashqlarni moslashtirishda yordam beradi. Metodologik yondashuvning asosiy mezoni shundan iboratki, husnixatga o'rgatish bola shaxsini zo'riqtirish emas, balki uni tartibli, ravon va ongli yozuvga olib boradigan tabiiy ta'limiy jarayon sifatida tashkil etilishi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Husnixatga o'rgatish tamoyillari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning birortasini alohida qo'llash yetarli natija bermaydi. Masalan, o'qituvchi ko'rgazmali namunani yaxshi tayyorlagan bo'lsa-yu, o'quvchining partada o'tirishi, daftarni tutishi va qalam bosimi nazorat qilinmasa, yozuv baribir barqaror bo'lmaydi. Yoki mashqlar ko'p berilgan taqdirda ham ular bosqichma-bosqich murakkablashmasa, bola zerikadi va harflarni mexanik ko'chirishga o'tadi. Shu sababli husnixat darsida tamoyillar tizimli ravishda qo'llanilishi lozim.

Birinchi tamoyil onglilik tamoyilidir. O'quvchi nima uchun harfni aynan shunday yozishini tushunishi kerak. Masalan, "o" harfining yumaloq shaklda yozilishi, uning qator chizig'idan yuqoriga yoki pastga chiqib



ketmasligi oddiy buyruq tarzida emas, balki ko'rsatish va solishtirish orqali tushuntiriladi. Bola to'g'ri va noto'g'ri yozilgan namunalarni ko'rsa, xatoni o'zi ham payqay boshlaydi. Bu esa husnixatni majburiy mashqdan ongli faoliyatga aylantiradi. K. D. Ushinskiy ta'kidlaganidek, bola tushunmagan mashq uning xotirasida mustahkam iz qoldirmaydi [3, s. 118].

Ikkinchi tamoyil izchillik va ketma-ketlikdir. Husnixatga o'rgatishda avval qo'lni yozuvga tayyorlovchi chiziqlar, keyin harf unsurlari, so'ng kichik harflar, undan keyin harf birikmalari va so'zlar yozdiriladi. Bu ketma-ketlik buzilsa, o'quvchi murakkab shaklni ko'chirishi mumkin, lekin uning ichki tuzilishini anglamaydi. Masalan, "m", "n", "u" kabi harflar o'xshash unsurlarga ega; agar bola oldin tik chiziq va egri chiziqni mashq qilgan bo'lsa, bu harflarni yozish osonlashadi. Shuning uchun har bir yangi harf avvalgi o'rganilgan grafik tajribaga tayanishi kerak.

1-jadval: Husnixatga o'rgatish tamoyillari va ularning amaliy ko'rinishi

Tamoyil nomi	Mazmuni	Darsdagi amaliy ifodasi
Onglilik	O'quvchi harf shakli va yozuv yo'nalishini tushunadi	To'g'ri va noto'g'ri namunani solishtirish
Izchillik	Mashqlar oddiydan murakkabga qarab beriladi	Chiziq, unsur, harf, bo'g'in, so'z tartibida yozish
Ko'rgazmalilik	Yozuv namunasi aniq va ko'rinadigan bo'ladi	Doskada yirik yozish, daftar namunasi berish
Individuallashtirish	Har bir bolaning yozuv sur'ati hisobga olinadi	Qo'shimcha yoki yengillashtirilgan mashq berish
Gigiyeenik talab	Sog'lom yozuv sharoiti yaratiladi	To'g'ri o'tirish, yorug'lik, qalam ushlashni nazorat qilish

Uchinchi muhim tamoyil ko'rgazmalilikdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi og'zaki tushuntirishdan ko'ra ko'rish, kuzatish va taqlid qilish orqali tezroq o'rganadi. Biroq ko'rgazmalilik faqat doskaga chiroyli yozish bilan cheklanmaydi. O'qituvchi harfni yozish yo'nalishini, qalam qayerdan boshlanishini, qayerda burilish hosil bo'lishini, harfning qator chizig'iga nisbatan joylashuvini bosqichma-bosqich ko'rsatishi kerak. Harfni tayyor holatda ko'rsatishdan ko'ra, uning qanday hosil bo'lishini ko'rsatish foydaliroq. Chunki o'quvchi yozuvni rasm sifatida emas, balki harakatlar ketma-ketligi sifatida o'zlashtiradi.

To'rtinchi tamoyil mashqning muntazamligi va me'yoriyligidir. Husnixat ko'p mashq qilishni talab qiladi, ammo bu ko'plik bolaning charchashiga olib kelmasligi lozim. Birinchi sinf o'quvchisiga bir sahifada bir xil harfni yozdirish har doim ham samarali emas. Aksincha, qisqa, maqsadli va xilma-xil mashqlar yaxshiroq natija beradi. Masalan, 2 qator harf unsuri, 1 qator harf, 1 qator bo'g'in, 1 qator qisqa so'z yozish bolaning diqqatini saqlaydi. Shuningdek, dars oralig'ida barmoq mashqlari va ko'zga dam beruvchi mashqlar ham qo'llanilishi kerak.

Beshinchi tamoyil gigiyeenik talablar bilan bog'liq. Husnixatga o'rgatishda partaning balandligi, bolaning o'tirish holati, daftar bilan ko'z orasidagi masofa, qalamning qalinligi va yumshoqligi, yorug'likning tushishi kabi jihatlar bevosita ahamiyatga ega. Bola daftar ustiga haddan tashqari egilib yozsa, nafaqat yozuv sifati, balki sog'lig'i ham zarar ko'radi. Qalamni juda qattiq bosish qo'l mushaklarini tez charchatadi, juda bo'sh ushlash esa chiziqning uzilishiga sabab bo'ladi. Shu sababli husnixat darsida o'qituvchi "chiroyli yoz" deb talab qilishdan oldin "to'g'ri o'tir", "daftarini mos burchakda tut", "qalamni erkin ushla" kabi ko'nikmalarni shakllantirishi zarur [2, s. 96].

Oltinchi tamoyil individuallashtirishdir. Sinfidagi barcha bolalardan bir xil tezlikda va bir xil sifatda yozishni kutish metodik jihatdan to'g'ri emas. Ayrim o'quvchilarning mayda motorikasi yaxshi rivojlangani uchun ular harflarni tez o'zlashtiradi. Boshqa bolalarda esa qo'l harakati sustroq bo'lishi, chiziqni bir tekis olib borish qiyin kechishi mumkin. Bunday holatda o'qituvchi bolani boshqalar bilan taqqoslamasligi, aksincha, uning kechagi yozuvi bilan bugungi yozuvini solishtirishi kerak. Shu yondashuv o'quvchida ishonchni saqlaydi.

2-jadval: O'quvchilar yozuvida uchraydigan xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Xato turi	Ehtimoliy sabab	Tuzatish usuli
Harflar qator chizig'idan chiqib ketadi	Qator oralig'ini chamalash sust	Katak yoki chiziqli namunada yo'naltirilgan mashq berish
Harflar bir-biriga haddan tashqari yaqin yoziladi	So'z ichidagi masofa tushunilmagan	Harflar orasiga nuqta yoki kichik belgi qo'yib mashq qilish
Qalam bosimi juda kuchli	Qo'l mushaklari zo'riqqan	Qisqa yozuv va barmoq bo'shashtirish mashqlarini bajarish
Harf shakli notekis	Harf unsuri yetarli mashq qilinmagan	Harfni qismlarga ajratib qayta yozdirish
Yozuv qiyaligi har xil	Daftar holati noto'g'ri	Daftar burchagini belgilab, kuzatib borish



Husnixatga o'rgatishning yana bir muhim jihati baholashdir. Baholash faqat "chiroyli" yoki "xunuk" degan umumiy fikrga asoslanmasligi kerak. Chunki bunday baho bola uchun mavhum bo'lib qoladi. O'qituvchi aniq mezonlarni ko'rsatishi lozim: harf shakli saqlanganmi, qatorga to'g'ri joylashganmi, so'zlar orasida masofa bormi, yozuvni o'qish osonmi, qalam bosimi me'yoriydam. Shunda o'quvchi o'z xatosini tushunadi va keyingi mashqda nimaga e'tibor berishini biladi. Bunday baholash yozuvni nazorat qilish madaniyatini ham shakllantiradi. Husnixat darslarida kichik ijodiy topshiriqlardan foydalanish ham foydali. Masalan, o'quvchilarga faqat alohida harflarni yozdirish o'rniga "ona", "maktab", "kitob", "bahor" kabi ma'noli so'zlarni chiroyli yozish topshiriladi. Keyin ular shu so'zlardan bittasi asosida og'zaki gap tuzishlari mumkin. Bunda husnixat nutq o'stirish bilan bog'lanadi. O'quvchi yozayotgan so'zining ma'nosini his qilsa, uning yozuvga munosabati ham o'zgaradi. M. Montessori qarashlarida ham qo'l harakati, sezgi va mazmunli faoliyat bir-biridan ajralmas jarayon sifatida izohlanadi [4, s. 63].

3-jadval: Husnixat bo'yicha qisqa dars ishlanmasi namunasi

Bosqich	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	Kutiladigan natija
Tayyorgarlik	O'tirish, daftar va qalam holatini tekshiradi	Yozuvga tayyorlanadi	Gigiyenik ko'nikma mustahkamlanadi
Ko'rsatish	Harf unsurini doskada bosqichma-bosqich yozadi	Harakat yo'nalishini kuzatadi	Harf tuzilishi angplanadi
Birgalikda mashq	Havoda va daftarda yozishni boshqaradi	Harfni avval sekin, keyin mustaqil yozadi	Qo'l harakati moslashadi
Mustaqil yozuv	Qisqa so'z yozishni topshiradi	So'zlarni qatorga joylab yozadi	Harf birikmasi shakllanadi
Tahlil	2-3 namunani muhokama qiladi	Xato va yutuqni aniqlaydi	O'zini nazorat qilish rivojlanadi

Husnixatga o'rgatishda o'qituvchining nutqi ham katta ahamiyatga ega. "Yomon yozding", "Bunday yozma" kabi iboralar o'quvchini ruhiy jihatdan tortinib qolishiga olib kelishi mumkin. Buning o'rniga "Bu harfning yuqori qismi yaxshi chiqqan, endi pastki qismini qatorga yaqinroq yozamiz", "So'zlar orasidagi masofani biroz ochamiz" kabi aniq va sokin izohlar samaraliroq. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi tanqiddan ko'ra yo'naltiruvchi yordamga ko'proq muhtoj. L. S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi qarashlari ham bolaning kattalar yordami orqali asta-sekin mustaqil bajarishga o'tishi zarurligini ko'rsatadi [5, s. 152].

Husnixat darslarida zamonaviy vositalardan ham me'yorida foydalanish mumkin. Masalan, interaktiv doskada harfning yozilish yo'nalishini animatsiya orqali ko'rsatish, proyektor yordamida o'quvchi daftaridagi yaxshi namunani ko'rsatish, elektron slaydlarda harf unsurlarini ajratib berish mumkin. Lekin bu vositalar qo'l bilan yozish mashqining o'rnini bosmasligi kerak. Chunki husnixat bevosita mushak xotirasi va takroriy harakatlar orqali shakllanadi. Texnologiya tushuntirishni yengillashtiradi, ammo malaka amaliy yozuv orqali mustahkamlanadi.

Yana bir masala – husnixatni faqat ona tili darsi bilan chegaralab qo'ymaslik. Matematika daftarida raqamlarni tartibli yozish, tabiatshunoslikda qisqa javoblarni aniq yozish, o'qish darsida matndan ko'chirma yozish ham yozuv madaniyatiga xizmat qiladi. Agar o'qituvchi faqat husnixat daftarida chiroyli yozishni talab qilib, boshqa daftarlardagi pala-partish yozuvga e'tibor bermasa, bola yozuv madaniyatini vaziyatga qarab o'zgartiriladigan odat sifatida qabul qiladi. Shuning uchun yagona talab barcha yozma ishlar uchun saqlanishi kerak. Husnixatga o'rgatishda milliy-estetik tarbiya imkoniyatlari ham mavjud. Chiroyli, ravon, tartibli yozuv o'zbek yozma madaniyatiga hurmat, kitobga e'tibor, tilga mas'uliyat bilan qarashni tarbiyalaydi. O'quvchi o'z yozuvini boshqalar o'qishini, demak, yozuv ham muloqot vositasi ekanini tushunadi. Bu jihatdan husnixat shaxsiy ko'nikma bo'lish bilan birga, ijtimoiy madaniyat ko'rinishidir.

XULOSA

Husnixatga o'rgatish boshlang'ich ta'limning oddiy texnik mashqi emas, balki bolaning nutqiy, aqliy, estetik va psixomotor rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan murakkab pedagogik jarayondir. Chiroyli yozuv o'z-o'zidan shakllanmaydi; u ongli tushuntirish, izchil mashq, ko'rgazmali namuna, individual yondashuv va sog'lom yozuv sharoitlari asosida rivojlanadi. Shu sababli husnixat darslari faqat harflarni takror yozish bilan cheklanmasligi, balki o'quvchida yozuvga nisbatan mas'uliyatli munosabatni tarbiyalashi zarur. Maqolada tahlil qilingan tamoyillar shuni ko'rsatadiki, husnixatga o'rgatishda eng muhim masala o'quvchini shoshiltirmaslikdir. Tez yozishga erta majburlash harf shaklining buzilishi, qalamni noto'g'ri ushlab va yozuvga befarq munosabatning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Avval to'g'ri, ravon va ongli yozuv shakllantirilsa, tezlik keyingi bosqichlarda tabiiy ravishda ortadi. Demak, sifat va barqarorlik birinchi o'rinda turishi kerak.



Husnixatga o'rgatishda o'qituvchining kuzatuvchanligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir o'quvchining yozuvida uchraydigan xatolarning sababi bir xil bo'lmaydi. Bir bola harf shaklini tushunmagani uchun xato qiladi, boshqasi qo'l mushaklari charchagani uchun, yana biri daftarni noto'g'ri tutgani uchun xato yozadi. Shuning uchun xatoni faqat natija sifatida emas, uning kelib chiqish sababi bilan birga tahlil qilish lozim. Xulosa qilib aytganda, husnixatga o'rgatish tamoyillari o'quvchini chiroyli yozishga o'rgatishdan kengroq maqsadga xizmat qiladi. U bolani tartibga, aniqlikka, sabrga, o'z ishini tekshirishga va yozma nutqni hurmat qilishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinfda to'g'ri tashkil etilgan husnixat ta'limi keyingi bosqichlarda yozma ishlar sifati, o'quvchining o'z fikrini ifodalash madaniyati va umumiy o'quv intizomiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois husnixatga o'rgatish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik faoliyatida muhim va doimiy e'tibor talab qiladigan yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Nosir, 2009.
2. Abdullayeva Q., Safarova R. Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. Ushinskiy K. D. Tanlangan pedagogik asarlar. Toshkent: O'qituvchi, 1979.
4. Montessori M. The Montessori Method. New York: Frederick A. Stokes Company, 1912.
5. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. Moskva: Pedagogika, 1991.
6. Elkonin D. B. Psixologiya obucheniya mladshego shkolnika. Moskva: Znaniye, 1974.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.